



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**ANTROPONIMLARNING INTERNET VA YANGI MEDIA
MAKONIDAGI O'RNI**
**THE ROLE OF ANTHROPONYMS IN THE INTERNET AND NEW
MEDIA SPACE**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/JOVJ3218

Otaxonova Sohiba Umidjon qizi

Tayanch doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

sohibaotaxonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet va yangi media makonida antroponimlarning lingvopragmatik o'rni tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram, Telegram) antroponimlarning identifikatsion va kommunikativ vazifalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, blog va videobloglarda shaxsiy brend yaratish, auditoriya bilan samimiy muloqot o'rnatish hamda esda qolarli nom shakllantirishdagi antroponimlarning roli ochib beriladi. Onlayn reklama va SMM materiallarida esa antroponimlarning e'tibor jalb qilish, ishonch uyg'otish va brendlash kabi pragmatik funksiyalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, internet makonida antroponimlardan shunchaki ism-sharif emas, balki kommunikativ, ijtimoiy va iqtisodiy resurs sifatida foydalaniladi.

Kalit so'zlar: antroponim, internet, yangi media, ijtimoiy tarmoq, blog, reklama, pragmatika, deyktik belgi

Annotation. This article analyzes the linguopragmatic role of anthroponyms in the context of the Internet and new media. The study examines the identificational and communicative functions of anthroponyms in social networks such as Facebook, Instagram, and Telegram. It also highlights the role of anthroponyms in blogs and video blogs as tools for personal branding, establishing sincere communication with the audience, and creating memorable names. Furthermore, the pragmatic functions of anthroponyms in online advertising and SMM materials, including attracting attention, building trust, and branding, are discussed. The findings demonstrate that in the digital space anthroponyms serve not only as personal names but also as communicative, social, and economic resources.

Keywords: anthroponym, Internet, new media, social network, blog, advertising, pragmatics, deictic marker.

Ma'lumki, raqamli kommunikatsiya davrida antroponimlarning qo'llanish doirasi keskin kengaydi. Bugungi kunda tilning integratsiyalanishi ko'plab yangi sohalarning rivojiga zamin yaratishi bilan bir qatorda, tilni yanada chuqur va har



tomonlama tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Xususan, antroponimlarning umumiy tadqidi: semantikasi, motivatsiyasi, tasnifi bo'yicha yangi qarashlar shakllandi. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, blog va videobloglar, onlayn reklama va SMM materiallari (auditoriyani jalb qiluvchi va brend imidjini shakllantiruvchi barcha content yig'indisi) shaxsiy ismning faqat nominativ emas, balki lingvopragmatik imkoniyatlarini ham yaqqol namoyon etmoqda. Internet makonida antroponimlar quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun dolzarb vosita sifatida e'tiborga olinadi:



Shu bois, ushbu tezida antroponimlarning yangi media makonidagi o'zni lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinadi.

Lingvopragmatikada atoqli otlar xuddi olmoshlar singari deytik belgilar atamasi ostida yuritiladi. [ХАКИМОВ, 2013:154] Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi nomi uning asosiy identifikatsiya vositasi sanaladi. Facebookda haqiqiy ism-sharifdan foydalanish ko'proq ishonchlilikni ta'minlasa, Instagram va Telegramda ismning qisqartirilgan yoki brendlashtirilgan shakllari keng qo'llanadi va bu "nickname" atamasi bilan yuritiladi. Cambridge lug'atida "nickname" atamasiga "narsa yoki shaxsning uning jamoatchilik tomonidan qo'yilgan haqiqiy ismidan farqlanuvchi jamiyatdagi o'rniga yohud xarakter xususiyatiga aloqador norasmiy nomi" deb ta'rif beriladi. Bu atamaning kelib chiqishi XIV asrga borib taqaladi.

Dastlab "ekename" (qo'shimcha ism) atamasi 1303-yilda tasdiqlangan. Bu so'z qadimgi ingliz tilidagi eac (also) so'zidan olingan bo'lib, "eacian" (o'sish) leksemasiga taaluqli. [<http://www.oed.com/view/Entry/60061>, June 2017] XV asrga kelib "an ekaname" qo'shilmasi bo'g'inlarining noto'g'ri taqsimlanishi uning nickname deb atalishiga olib kelgan va o'shandan beri bu so'z nisbatan barqaror is'temolda ishlatilmoqda. [Online Etymology Dictionary: 2007-08-31] Bugungi davrda ko'pchilik o'z haqiqiy ismidan emas o'ziga qulay bo'lgan boshqa nomdan ism sifatida foydalanadi. Buning tag zaminida nafaqat qulaylik, balki qandaydir mashhurlikka intilish g'oyasi ham bo'lishi mumkin. Identifikatsiya ya'ni o'zini shaxsini boshqalardan ajratish va aniqlash uchun ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari tanlagan nicknamelarni antroponimlar safiga qo'shish uchun bir qancha asoslar mavjud. Birinchidan, antroponimlar kabi ular tarmoq foydalanuvchilarini alohida nomlaydi. Nominator vazifasini esa aynan nickname egasining o'zi bajaradi. Lingvopragmatik nuqtai nazardan olib qaralsa, foydalanuvchi (Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari nazarda tutilgan) o'ziga nickname tanlash orqali kommunikativ maqsadni amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bu yerda nom tanlash asosida



nickname egasining xohish-istagi, dunyoqarashi, mashhurlikka erishish istagi yoki aksincha omma nazaridan qochishga intilishi va hokazo niyatlari yashiringan bo'ladi. Rasmiy nom ya'ni hujjatdagi ism-familiya va sharifi, haqiqiy ismning qisqartirilgan shakli, farzandlariga tegishli ism yoki turmush o'rtog'ining ismi(asosan ayollar o'rtasida keng qo'llaniladi), so'z birikmalari (*oilam yulduzi, otasining erkasi*), sintaktik qurilmalar(*oilam-baxtim*), mashhurlarga tegishli ismlar(*asar qahramonlari, kinoaktyorlar*) va hokazolar nickname sifatida foydalaniladi.

Media makonda mashhur nicknamelar orqali omma e'tiborini o'ziga jalb qilish, mashhur kontentlar yaratish, reklamalar vositasida shaxsiy brend yaratish va sotuvni oshirish bugunning dolzarb masalalari qatorida ko'riladi. Shuningdek, mashhur shaxslarning antroponimlari tez-tez **xashtyeg** (#Shohruxxon, #MunisaRizayeva) yoki **mem** tarkibiga aylanadi. Bunday holda antroponim nafaqat referensial vazifani, balki hissiy ta'sirni ham kuchaytiradi. Masalan, Instagram ijtimoiy tarmog'idagi #Munisaga yordam xashtyegi ostidagi postlar asosan auditoriyada achinish emotsiyasini uyg'otishga qaratilgan bo'ladi. Aynan antroponim yordamida tarmoq kuzatuvchilarida shunday emotsiya yaratish maqsadi yashiringan bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlarda antroponimlarning bunday ko'rinishi ularning kommunikativ-pragmatik tabiatini yanada kengroq yoritishga imkon beradi.

Matn tilshunosligi bilan bog'liq tadqiqotlarda «pretsedent birliklar» termini bilan umumlashtiriladigan alohida hodisa qayd qilinadi. "Muayyan til egalariga yaxshi tanish bo'lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror so'z birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar" [Худойбергано́ва,2013:87] sifatida olinadi. "Tarixiy voqealar, mashhur asarlar, diniy, mifologik rivoyatlar va shu kabi keng ommaga ma'lum bo'lgan narsalarga ishora qilish yoki ulardagi turg'un tushunchalarni badiiy matnga olib kirish"

[Йўлдошев,2008:84] kabi vazifalarni bajaradi. Ommaviy axborot vositalari orqali biror mahsulot reklama qilingan vaqtda aynan reklama tarkibida pretsedent nomlardan keng foydalanilganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Bu o'rinda antroponimning reklama matni tarkibida qo'llanilishi auditoriyaga kuchli ta'sir o'tkazadi. Buning sabablari quyidagicha baholanishi mumkin: Pretsedent nomlar avvaldan tinglovchi xotirasida asosan ijobiy assotsiatsiyalar bilan mavjud bo'lganligi sababli reklama matni ichida qatnashish orqali auditoriyada reklama qilinayotgan mahsulot yoki boshqa narsalarga nisbatan ishonchni yanada oshiradi. Bu holatda antroponim reklamaning perlokutiv ta'sirini kuchaytiradi. SMM mutaxassislari aynan shu maqsadni ko'zlagan holda reklamalarda mashhurlar nomidan foydalanishni ma'qul ko'radilar. Dream City Development qurulish kompaniyasining bir reklamasi quyidagicha holatda auditoriyaga taqdim qilindi: "Uy oling-Tayson bilan qo'shni bo'ling"

[<https://share.google/RxRfWboCeVyHJPUN1>].



Bu reklama orqali xaridorlarning uy olishga qiziqishi sezilarli darajada oshadi. Chunki auditoriya uchun Tayson shaxsi o'ta mashhur va shu bilan birgalikda u o'ziga eng yaxshisini ravo ko'radigan shaxs sifatida yaxshi tanish. Agar uylar Tayson uchun muqobil tanlov bo'lgan bo'lsa demak bu uylar ancha ishonchli va boshqalariga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Birgina antroponimning reklama matni ichidagi ishtiroki orqali bir qancha kommunikativ maqsadlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda auditoriya e'tiborini o'ziga jalb qilish maqsadida foydalanilayotgan hamma antroponimlar ham mashhur kishilarga tegishli bo'lmasligi mumkin. Ularning oldin ham ishlatilganligi va qaysidir xususiyati bilan esda qolganligi ham uni pretsedent nom sifatida qabul qilinishi va foydalanilishiga asos bo'lishi mumkin. Tor doirada ishlatiladigan va ayrim soha vakillari uchungina tanish bo'lgan antroponimlarni ham shu qatorga kiritishimiz mumkin.

Blogerlik faoliyati shaxsiy ism bilan bevosita bog'liq. Ko'plab blogerlar o'z ismlarini brendga aylantirib, o'z faoliyatini shu asosda targ'ib qiladi: Masalan, @liil.khurov, Begi.po, Makhli_cook va boshqalar (Misollar instagram ijtimoiy tarmog'idan olingan) Videobloglarda (YouTube, TikTok) esa blogerning o'zini ism orqali tanishtirishi ("Salom, men — Nodira") auditoriya bilan bevosita aloqa o'rnatadi. Bu jarayonda antroponim **tanishuv markeriga** aylanib, auditoriyada ishonch uyg'otadi. Bundan tashqari, ayrim hollarda antroponim o'rniga taxallus yoki kreativ nick qo'llanadi: *kidimart.uz*, *my_meryam*, *Lailo_ilyasova* va *h.k*. Bu usul shaxsiy brend yaratishda samarali bo'lib, auditoriyada barqaror assotsiatsiya shakllantiradi. Onlayn reklama va SMM materiallarida antroponimlar ikki asosiy vazifani bajaradi:

1. Auditoriyani jalb qilish;
2. Matnga ishonchlilik bag'ishlash.

Masalan "Sofiya cake" allaqachon qandolat brendiga aylanib ulgurgan. Bu nom va shu nom ostida chiqadigan mahsulotlar iste'molchilar ongida eng nozik ta'blilar uchun yaratilgan shirinliklar degan xabarni bera oladi. Yoki ko'p yillardan beri "To'xtaniyoz ota kolbasalari" nomi ostida sotilayotgan mahsulotlar reklamasi ta'sirida tinglovchi ongida ism eshinishi bilan u bilan bog'liq bo'lgan go'sht mahsulotlari gavdalanadi. Ayrim reklamalar esa bevosita iste'molchilar ongidagi oldindan mavjud bo'lgan assotsiatsiyalarni inobatga olgan holda yaratiladi. Ya'ni reklama ta'siri kuchli bo'lishi uchun nom ham shunga mos tanlanadi. Misol uchun "Ibn Sino klinikasi" deb nomlangan shifo maskani odamlarni ko'proq qiziqtirishi mumkin. Bu yerda klinika nomi sifatida tanlangan antroponimning eshituvchilar uchun tanish va aynan shu sohada mashhurligi inobatga olingan.

Internet va yangi media makoni antroponimlarning lingvopragmatik imkoniyatlarini kengaytirdi. Endilikda antroponimlar nafaqat shaxsni nomlash vositasi, balki:

- identifikatsiya markerlari (ijtimoiy tarmoqlarda),
- shaxsiy brend unsuri (blog va videobloglarda),



-ta'sirchanlik va auditoriyani jalb qilish vositasi (reklama va SMM materiallarida) sifatida faol qo'llanmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, blog va videobloglarda antroponimlarning lingvopragmatik imkoniyati nafaqat identifikatsiyada, balki ta'sirchanlik, brendlash va auditoriyani jalb etishda ham ko'zga tashlanadi. Shu bois, zamonaviy o'zbek tilshunosligida antroponimlarning yangi media makonidagi o'rnini va ularning pragmatik funksiyalarini tadqiq qilish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Хакимов М. *O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari*. – Toshkent: Akademiya nashri, 2013. – 176 b.
2. Худойберганова Д. *Matnning antropotsentrik tadqiqi*. – Toshkent: Fan, 2013. – 87 b.
3. Ёўлдошев М. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. – Toshkent: Fan, 2008. – 124 b.
4. *Nickname*. Online Etymology Dictionary. URL: <http://www.etymonline.com/index.php?term=nickname> (murojaat sanasi: 2007-08-31).
5. Oxford English Dictionary (OED). URL: <http://www.oed.com/view/Entry/60061> (murojaat sanasi: 2017-06).
6. Google Docs. URL: <https://share.google/RxRfWboCeVyHJPUN1> (murojaat sanasi: 2018-09-19).



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774